



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

2025-yil III chorak

Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi (bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlar)

Rezyume

So'nggi yillarda mamlakatimiz moliya tizimida bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlarning¹ ahamiyati oshib bormoqda. Xususan, boshqa moliyaviy tashkilotlar moliyaviy aktivlari hajmining moliya tizimidagi ulushi 2024-yil oxirida **5,4 foizni** tashkil qilgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2025-yil 1-oktabr holatiga kelib **6,1 foizgacha** oshdi (2019-yil oxirida 3,3 foiz).

Moliyaviy aktivlar hajmi dinamikasida boshqa moliyaviy tashkilotlardagi o'sish sur'atlarining bank tizimiga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan, oxirgi olti yil davomida bank tizimi moliyaviy aktivlari hajmi 3,2 barobarga ko'paygan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich boshqa moliyaviy tashkilotlarda bank tizimiga nisbatan qariyb **2 marta** tezroq o'sib, **6 barobarga** oshdi.

Boshqa moliyaviy tashkilotlarning iqtisodiyot real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Taqqoslash uchun, boshqa moliyaviy tashkilotlarning real sektorga bo'lgan talablari 2024-yilning 1-oktabr holatiga **20,5 trln** so'mni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich bank tizimi kredit qo'yilmalariga nisbatan **2 barobar** tezroq o'sib, 2025-yilning 1-oktabr holatiga **27,3 trln** so'mga yetdi.

Aktivlarning kapital bilan ta'minlanganlik darajasida boshqa moliyaviy tashkilotlar nisbatan yuqori barqarorlik namoyon etmoqda. Xususan, 2025-yilning 1-oktabr holatiga tijorat banklarida aktivlarning kapital bilan ta'minlanganlik darajasi 16,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, boshqa moliyaviy tashkilotlarda mazkur ko'rsatkich **50,9 foizga** (2024-yil 1-oktabr holatida 45,2 foiz) yetdi.

¹ Mazkur "Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi" Markaziy bank tomonidan Xalqaro valyuta jamg'armasining "Pul-kredit va moliyaviy statistikani shakllantirish qo'llanmasi" (2016) konsepsiya va tasniflariga muvofiq choraklik davriylikda shakllantiriladigan "[Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi](#)" asosida tayyorlangan bo'lib, moliya tizimida faoliyat yuritayotgan bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlarning iqtisodiyot sektorlariga bo'lgan talab va ular oldidagi majburiyatlari pozitsiyasini aks ettiradi.


"Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi" mamlakatda faoliyat yurituvchi sug'urta va lizing tashkilotlari, to'lov tashkilotlari va to'lov tizimi operatorlari, fond va valyuta birjalari, shuningdek, lombardlar, mikromoliya tashkilotlari, ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi (IQMK) hamda Omonatlarni kafolatlash agentligi (OKA) kabi bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlarining jamlanma buxgalteriya balansi hisobotining analitik ko'rinishini ifodalaydi.

I. BOSHQA MOLIVAVIY TASHKILOTLARNING MOLIVAVIY AKTIVLARI TARKIBI

2025-yil 1-oktabr holatiga boshqa moliyaviy tashkilotlarning jamlanma moliyaviy aktivlari **51,9 trln** so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35,6 foizga** (2024 yil 1-oktabr holatida – 38,2 trln so'm) oshdi.

Bunda, lizing tashkilotlarining moliyaviy aktivlari ushbu davrda **38,6 foizga**, sug'urta tashkilotlari – **10,7 foizga**, mikromoliya tashkilotlari – **49,9 foizga** va OKA – **48,4 foizga** o'sgan.

1-rasm. Moliyaviy aktivlar, mlrd so'mda




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

1.1 Sof tashqi aktivlar

Boshqa moliyaviy tashkilotlarning sof tashqi aktivlaridagi manfiy tafovut o'tgan yilning mos davriga nisbatan **19,2 foizga** oshib **-3,5 trln** so'mni tashkil qildi. Bu o'z navbatida, mazkur tashkilotlarning norezidentlar oldidagi majburiyatlari, talablariga qaraganda yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi bilan izohlanadi.

Jumladan, IQMK faoliyatida tashqi resurs mablag'larining sezilarli oshganligi, xususan, norezidentlar oldidagi majburiyatlari 2024-yilning mos davriga nisbatan **3 barobarga** oshib, **984,8 mlrd** so'mga yetganligi asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

2-rasm. Norezidentlarga bo'lgan talab² va majburiyatlar³, mlrd so'mda

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Shuningdek, sug'urta tashkilotlarining norezidentlarga bo'lgan talablari hajmi 2024-yil 1-oktabr holati bilan solishtirganda **5 foizga** oshib, 2025-yil III chorak yakunida **794,7 mlrd so'mga** yetdi.


1.2 Depozit tashkilotlariga (bank tizimi) bo'lgan talablar

Bank tizimiga bo'lgan talablar jami aktivlarga mos ravishda oshib bormoqda. Jumladan, boshqa moliyaviy tashkilotlar jami moliyaviy aktivlarida bank tizimiga bo'lgan talablar **33,8 foiz** atrofida shakllanib, **17,5 trln so'mga** yetdi.

Tashkilotlar kesimi bo'yicha qaralganda, depozit tashkilotlariga bo'lgan talablarning asosiy qismi sug'urta tashkilotlari (37,1 foiz), IQMK (33,4 foiz) va to'lov tashkilotlari (13,8 foiz) hissalariga to'g'ri keldi.


² Norezidentlarga bo'lgan talablar – aksiya va kapitalga boshqa investitsiyalar, chet el valyutasidagi naqd pullar, avanslar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

³ Norezidentlarga bo'lgan majburiyatlar – kredit va qarz mablag'lari, avanslar, sug'urta texnik zaxiralari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

3-rasm. Bank tizimiga bo'lgan talablar, tashkilotlar kesimida, ulushlarda

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Shuningdek, IQMK tomonidan tijorat banklariga ipoteka kreditlarini moliyalashtirish maqsadida ajratilgan resurslarning sezilarli oshishi, o'z navbatida, maqsadli va boshqa qarz mablag'lari miqdorining **5,6 trln** so'mga yetishiga xizmat qildi.

4-rasm. Bank tizimiga bo'lgan talablar, moliyaviy instrumentlar kesimida, mlrd so'mda


Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Qayd etish joizki, bank tizimiga bo'lgan jami talablarning asosiy qismi depozitlardan iborat bo'lib, ularning ulushi **56,4 foizni** (9,9 trln so'm) tashkil etdi.

1.3 Markaziy hukumatga bo'lgan sof talablar

Markaziy hukumatga bo'lgan sof talablar 2024-yilning III choragi yakunida **-2,4 trln** so'mni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yil davomida ushbu tashkilotlar tomonidan davlat qimmatli qog'ozlariga kiritilgan investitsiyalar hisobiga mazkur salbiy tafovut **-1,7 trln** so'mgacha qisqardi.

5-rasm. Markaziy hukumatga bo'lgan talab va majburiyatlar, mlrd so'mda




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

1.4 Boshqa sektorlarga bo'lgan talablar

Boshqa sektorlarga (davlat nomoliyaviy tashkilotlar⁴, nodavlat nomoliyaviy tashkilotlar⁵ hamda jismoniy shaxslar) bo'lgan talablari o'suvchi dinamikani qayd etmoqda. Xususan, iqtisodiyotga bo'lgan jami talablar (kredit qo'yilmalari) o'tgan yilning mos davriga nisbatan **33 foizga** oshib, **27,3 trln** so'mni tashkil etdi.

⁴ Davlat nomoliyaviy tashkilotlar — nomoliyaviy xizmatlarni ko'rsatish yoki mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiqni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining (kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i ustav fondida (kapitalida) 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar;

⁵ Nodavlat nomoliyaviy tashkilotlar — nomoliyaviy xizmatlarni ko'rsatish yoki mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foizdan kam bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining (kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lmagan yoki davlat ulushi 50 foizdan kam bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar.

6-rasm. Boshqa sektorlarga bo'lgan talablar, mlrd so'mda

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Bunda, asosiy o'sish lizing va mikromoliya tashkilotlarining umumiy lizing va mikromoliya portfelli hissalariga to'g'ri kelib, ushbu ishtirokchilarning portfelli hajmi hisobot choragi yakunida mos ravishda **14,2 trln** so'm hamda **9,6 trln** so'mga yetdi.


II. BOSHQA MOLIYAVIY TASHKILOTLARNING PASSIVLARI TARKIBI

2025-yil III chorak yakunida boshqa moliyaviy tashkilotlarning jami passivlari tarkibining asosiy qismi aksiyalar, kapital va kreditlar (*jalb qilingan qarz mablag'lari*) kabi moliyaviy instrumentlar hisobiga shakllandi.

Ta'kidlash lozimki, boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan depozitlar jalb qilinmasligi hamda moliyaviy hosilaviy instrumentlar bilan bog'liq operatsiyalar amalga oshirilmaganligi bois passivlarning "Depozitlar" va "Moliyaviy hosilaviy instrumentlar" bo'limlarida qiymat mavjud emas.

2.1 Aksiyalar va kapitaldagi ishtirokning boshqa shakllari



Jami passivlar tarkibida kapitalning ulushi 2025-yil 1-oktabr holatiga **51 foizni** (26,4 trln so'm) tashkil etdi.

7- rasm. Boshqa moliyaviy tashkilotlar kapitali, 2025-yil 1-oktabr holatiga, mlrd so'mda

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

2.2 Kreditlar

Kreditlar – boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan iqtisodiyot sektorlaridan (*norezidentlar hamda markaziy hukumatdan tashqari*) jalb qilingan kreditlar va boshqa qarz mablag'larini ifodalaydi.

8-rasm. Jalb qilingan qarz mablag'lari, tashkilotlar kesimida, mlrd so'mda**9-rasm. Jalb qilingan qarz mablag'lari, sektorlar kesimida, mlrd so'mda**

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Tashkilotlar kesimi bo'yicha qaralganda, yirik qarz oluvchilar mikromoliya va lizing tashkilotlari bo'lib, hisobot davri yakunida ularning jamlanma ulushi **89 foizni** yoki **8,2 trln** so'mni tashkil qildi.

Boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan jalb qilingan kreditlarning salmog'li qismi banklar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, hisobot choragi yakunida tijorat banklaridan jalb qilingan resurslar **4,4 trln** so'mni tashkil qildi.